



## PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

**Abdushuxratova  
 Durdona  
 Anvarovna**

*Qo'qon Universiteti  
 Ta'lim fakulteti BT 1-21-guruh 4- kurs talabasi  
 dabdushuxratova@gmail.com*

### Abstract

Ushbu maqolada pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlashga qaratilgan. O'qituvchilarning kreativlik qobiliyatları o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki bu ularning o'quvchilarga yangi g'oyalar va innovatsion metodlarni yetkazishlariga yordam beradi. Tadqiqotda interaktiv o'qitish metodlari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, o'zaro hamkorlik va motivatsiya kabi asosiy omillar tahlil qilingan. Maqola zamonaviy ta'lim muhitida pedagoglarning o'quv jarayoniga innovatsion va ijodiy yondashuvlarini kuchaytirish maqsadida ularning kreativlik sifati rivojini ta'minlashning muhimligini ta'kidlaydi. Pedagoglarda kreativlikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar, ularning o'qitish uslublarini boyitish, yangi g'oyalar yaratish va o'quvchilarni faol jalb qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradigan omillar batafsil tahlil qilinadi. Pedagoglarning kreativlik potansiyalini ochish, ularning o'qitish uslublarini takomillashtirish va o'quv jarayonini yanada samarali va jozibali qilishga qaratilgan.

**Keywords :** kreativlik, innovatsiyalar, ijodkorlik, o'qitish metodlari, interaktivlik, muammoni hal etish.

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi , sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <file:///C:/Users/User.AD.037/Downloads/kreativlik-pedagogik-faoliyatni-rivojlanirishning-asosiy-omili-sifatida.pdf>

Kreativlik tushunchasi(lot., ing. "create"-yaratish, "creative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

"Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrants to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarini shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagи bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

### **Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish**

Bo'lajak pedagoglarni...	- qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash
Bo'lajak pedagolgarga...	kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikirlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish
Bo'lajak pedagoglarni...	suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish
Bo'lajak pedagoglar...	o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobjiy fikirlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish

## “Yumaloqlangan qor”metodi

O‘quvchilarda nutqni rivojlantirish uchun yana bir metod bu dars jarayonida bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bo‘g‘in ko‘chirishni birinchi marta o‘rganayotganlarida ularga bo‘g‘inga bo‘lib o‘rganadilar. O‘yin sharti quyidagicha. O‘quvchilarga turli rangdagi kartochkalar tarqatiladi. Ularga so‘zlar yozilgan bo‘ladi. Ushbu so‘zlarni “Qarsak”orqali bo‘g‘inlarga ajratib qor parchasini hosil qilish kerak bo‘ladi. Har xil rangdagi kartochkalar orqali g‘ijimlarga qorimiz o‘quvchilarga xushkafiyat ham ulashadi.

Masalan Televizor so‘zi yozilgan bo‘lsa 4 ta qarsak chaladi. Va kartochkasini g‘ijimlab qor hosil qiladi.

## Kreativ ta’lim jarayonidagi muammolar<sup>2</sup>

1. Pedagoglarning ko‘plarida “kreativlik” haqida tushunchaga ega emasligi
2. Hozirda pedagoglar –yangiliklarni ilgari surish, ijodiy mahsulotlar yaratish, dars jarayoniga nostandard usullar bilan yondashishga intilmasligi, o‘sha bitta qolipga tushib o‘sha qolipdan chiqmasligi
3. Innovatsion yondashuv va pedagogic masalalarni yechimini topishga kreativ yondashmaslik
4. O‘z kasbiga ijodiy yondashmaslik
5. Pedagog kasbiga muhabbat qo‘ymasdan ishlashi
6. Muammoli ma“ruza, amalyotlarni yo‘qligi
7. Aqliy harakatlarni rejalashtirmaslik
8. Ijodiy faollikni oshirishga yordam beradigan o‘qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanmasligi
9. Zamонавиј та’лим тизимда о‘qituvchilar muloqotning dialogic usullariga e“tibor qaratmasligi
10. Muvaffaqiyatsiz urunishlarni tahlil qilmaslik.

**Xulosa:** O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, o‘z navbatida, o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga olib keladi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda kreativlikni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari, yangi metodlardan foydalanishlari va o‘zaro hamkorlikda ishslashlari kerak.

## Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <file:///C:/Users/User.AD.037/Downloads/kreativlik-pedagogik-faoliyatni-rivojlantirishning-asosiy-omili-sifatida.pdf>

<sup>2</sup> <file:///C:/Users/User.AD.037/Downloads/kreativ-ta-lim-texnologiyasi.pdf>

2. <file:///C:/Users/User.AD.037/Downloads/kreativ-ta-lim-texnologiyasi.pdf>
3. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
4. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003